

5-SINF ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA FOYDALANILADIGAN SINONIMLAR O'QUV LUG'ATI UCHUN BIRLIKLAR TANLASHNING LINGVOMETODIK ASOSLARI

Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
o'qituvchisi*

Sodiqova Dilorom Bunyod qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-
kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sinonim so'z so'z tanlash, ona tili darslarida sinonim lug'atidan foydalanish va uning samaradorligi haqida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Sinonim, lug'at, izoh, ma'no, tamoyil, tushuncha, so'z, leksema, omil, usul, uslub.*

Beshinchi sinf o'quvchilari endigina boshlang'ich sinflarni tugatib chiqqan hisoblanadi. Shuning uchun beshinchi sinf o'quvchilari uchun sinonimlar izohli lug'atlari sodda va tushunarli ko'rinishda bo'lishi lozim. Beshinchi sinf ham tayanch sinflar qatoriga kiradi. Quyida biz aynan tayanch sinflar uchun sinonimlar izohli o'quv lug'ati tuzishga harakat qildik.

Tayanch sinflar uchun sinonimlar izohli o'quv lug'ati quyidagicha tuzilsa, o'quvchilar uchun manfaatli bo'lishi mumkin.

ADOLATSIZLIK – HAQSIZLIK – BEDODLIK

ADOLATSIZLIK.

1. **So'zning izohi:** *haqqoniyatdan yiroq ish, odillikni poymol etuvchi, xatti-harakat yoki holat;*

So'z berilib, uning izohi to'liq va tushunarli tarzda berilishi lozim. Yuqoridagi ma'nosi izohlanayotgan so'z sinonimlar izohli lug'atdan o'z holaticha olingan. Beshinchi sinf o'quvchisi uchun izohda uchraydigan so'zlar: *haqqoniyat, yiroq, ish, xatti-harakat, holat* so'zlarining ma'nosi tushunarli bo'lishi mumkin. Ammo *odillik, poymol etuvchi* so'zlarining ma'nosi biroz tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shuning uchun *adolatsizlik* so'zining izohini quyidagi shaklda berishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'zning izohi: *haqqoniyatdan yiroq ish, xatti-harakat yoki holat*

Odillikni poymol etuvchi birikmasini esa yuqori sinflar: 6,7,8,9 va undan yuqori sinflar uchun tuzilgan sinonimlar izohli o'quv lug'atiga kiritish mumkin degan fikrdamiz.

HAQSIZLIK

Izoh: *Haq-huquqdan mahrum etilgan, haq-huquq toptalgan holat.*

Misol: *Mening boshimga haqsizliklar, haqoratlar, xo'rliklar tushgandan keyin oq-qorani ancha taniydigan bo'ldim.*

BEDODLIK.

Izoh: Arz-dodga hech kim quloq solmaydigan, adolatsizlik, qonunsizlik hukm surgan holat.

Misol: Axir qanday bedodlik bu,
Miyangizga urar qon,
Qolmayotir bu dunyoda
Na insof- u na vijdon.

2. **Darajalanishi:** *Adolatsizlik – haqsizlik – bedodlik;*

So'zlarning darajalanishini puxta o'zlashtirish o'quvchi uchun nutq uslublaridan og'zaki va yozma nutqda xato va kamchiliklarsiz to'g'ri foydalanishini ta'minlaydi. Beshinchi sinf ona tili darsligi asosan 5-sinf va 11-sinf ona tili darsliklarida o'tiladigan mavzular qisqa va sodda berilgan. Bu beshinchi sinf o'quvchilarida mavzular bo'yicha biroz tushunchaga kelishi uchun berilgan. O'quvchilarning sinflari yuqorilayverгани sari mavzular ham murakkablashib keng ifoda etib boriladi. Masalan, 5-sinfda *ot* so'z turkumi haqida *ot nima?*, u qanday so'roqlarga javob beradi? kabi umumiy bo'lgan tushuncha va bilimlar berilsa, yuqori sinflarda esa, uning tuzilishi ma'noviy guruhlari, sintaksisda vazifasi kabi holatlari o'rganiladi. Darajalanishda har doim birinchi o'rinda dominanta so'z bo'ladi, ya'ni yozma nutqda ham, og'zaki nutqda ham eng faol so'z beriladi.

Misol: Saroydagi adolatsizlikdan vazir bosh olib chiqib ketdi;

3. **Uslublarda qo'llanilishi:** *Adolatsizlik so'zlashuv (ko'proq), badiiy uslubida. Haqsizlik va bedodlik badiiy uslubda;*

Beshinchi sinflar uchun sinonimlar izohli lug'atini tuzishda izohlanayotgan so'zning izohini berish tartibiga ushbu so'zning nutq uslublari qay darajada faolligini berish orqali biz o'quvchining nutqini ham ma'noviyiligini ham tartibini ham tushunarligini ta'minlashimiz mumkin. Yuqorida izoh orqali o'quvchida ma'nosi notanish bo'lgan so'z haqida tushuncha hosil qilsak, darajalanish orqali nutqda so'zning faolligi o'rganilsa, so'zni uslublarda qo'llanilishi orqali biz o'quvchi nutqining tushunarligiga va o'rinli qo'llay olishiga erishishimiz mumkin.

4. **Antonimi:** *adolatlilik, odillik*

So'zning izohi, darajalanishi, uslublarda qo'llanilishi, o'quvchining nutqiga qay darajada ta'sir etsa, antonimlar ham o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshiradi.


5. **Paronimi mavjud emas.**

Sinonimlar izohli o'quv lug'ati qaysi tartibda tuzilishi o'quvchi uchun ham so'zning to'liq ma'nosini tushunishi, ham undan yozma va og'zaki nutqda bimalol foydalanishi mumkin? Izohli o'quv lug'atlari o'quvchilar uchun qanday qulayliklar yaratishi mumkin fanlarni o'zlashtirishda? Bu kabi savollarga

 **Topshiriq.** Lidiya Batning “Hayot bo’stoni” asaridan olingan parchani o’qing. Undagi g’oya bo’yicha fikr bildiring. Ajratib ko’rsatilgan so’zlarning ma’nodoshlarini toping.

Alisherga sovg’a qilingan kitob yo’qolgani yo’q, **qalbiga** jo bo’lib qoldi. U tirik ekan, **xotirida** yashaydi. Alisher **quvonch** va hayajon bilan o’rmidan turdi. **Boyadan** beri **bolani** kuzatib turgan Sharafiddin mehr bilan uning **boshiga** qo’lini qo’ydi-da: “Ilmingni kamol toptir, ilm **zeb-ziynating** bo’lsin, zeroki, ilm **insonning** yo’lchi yulduzidir”, – dedi.



 Bir umumiy ma’noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so’zlarga **sinonim (ma’nodosh) so’zlar** deyiladi. Bu kabi so’zlarning bir qatorga jamlanishiga **sinonim (ma’nodosh) so’zlar qatori** deb ataladi. Masalan: *g’alaba, zafar, yutuq*. Qatordagi ma’nosi hammaga tushunarli bo’lgan, nutqda faol qo’llanadigan, adabiy shakl sanalgan so’z **bosh so’z** deb yuritiladi.

 **262-mashq.** Qavs ichidagi so’zlardan mosini qo’yib, gaplarni ko’chiring.

1. Dehqonning (*boyligi, ganjinasi, xazinasi*) – yer, kaliti – ter.
2. Yer ichida (*tilla, oltin, zar*) bor, qaziy bersang, topasan. 3. Yerga qarasang (*bo’ston, bog’, guliston*) bo’lar, (Ko’ngling, diling, qalbing) ochilib, chog’ bo’lar. 4. Suv keldi – (*ziyo, nur, yog’du*) keldi. 5. Sen yerni yer qilsang, Yer seni (*arslon, sher, yo’lbars*) qiladi.

 **263-mashq.** Uyga vazifa. Rasm asosida “*Millatning quyoshi – Navoiy bobom*” mavzusida matn tuzing. Gaplarda ma’nodosh so’zlarni qo’llang.

1-topshiriq. Ushbu matndagi ajratib ko’rsatilgan so’zlarni o’rniga ularning sinonimlarini qo’yib yozing.

Globus (lotincha: globus — shar, kurra) — **Yer** sharining modeli, uning kichik masshtabdagi sharsimon **nusxasi**. Globusda Yerning geometrik konturlari va **maydonlar** nisbatini saqlagan holda **butun** yer yuzasidagi geografik ob’yektlar (quruqlik va suv havzalari, tog’, tekislik va b.) **qiyofasi** muayyan nisbatda juda kichraytirilgan holda tasvirlanadi. Globusda geografik xaritalarda **yo’l** qo’yiladigan yo’nalish, maydon va **shakl** xatoliklari bo’lmaydi. Globuslar foydalanish maqsadlariga ko’ra birbiridan farq qiladi: o’quv globuslari, ilmiy **ishlarga** mo’ljallangan globuslar, **transport** qatnovi uchun amaliy maqsadlarda **foydalaniladigan** globuslar. Shu bilan birga ulkan globuslar ham yasalgan. Hozirgi vaqtda Sankt-Peterburg shahrida saqlanadigan globus masshtabi.

Yer yuzasi **tasvirlangani** geografik globus, **Oy** yuzasi tasvirlangan Oy globusi, osmon sferasi tasvirlangan osmon Globusi deb ataladi. xaritagrafik mazmuniga ko'ra ham Globuslar **har xil** bo'lishi mumkin. Eng keng tarqalgani **tabiiy** geografik Globuslardir.

Globus yasash tarixi **uzoqo'tmishdan boshlangan**. Qadimda sanoqligina olimlarning olam haqidagi ilmiy to'g'ri **tasavvurlari** dastlabki globuslarda o'z aksini topgan. **Dastlabki** ibtidoiy Globusni mil. av. 2-asrda yunonistonlik Krates yasagan va u o'rta asr globuslaridan ancha farq qilgan.

Sharqda dastlabki ilmiy Globusni Xorazmda Abu Rayhon Beruniy 1016-yilda yasagan (P. G. Bulgakov uni 995 yilda yasalgan deb yozgan), u faqat Shimoliy yarim shardan iborat eng **birinchi** bo'rtma (relyefli) Globus bo'lib, **aholi** yashaydigan **joylaraniq** kursatilgan. Globusning diametri qariyb 5 m bo'lganligi ma'lum (masshtabi 1:2 500 000). Beruniy o'zi **yasagan** globus haqida "Geodeziya" asarida yozib qoldirgan. 13-asrda Misrda ham Globus ishlangan. 1492-yil Nyurnbergda nemis geografi va sayyohi Martin Bexaym (1459—1507) diametri 0,54 m li Globus ("Yer olmasi")ni yasagan. Unda Yangi Dunyoni **kashf qilinishi** arafasidagi Yer yuzasi haqidagi tasavvurlar aks etgan. Bexaym bu globusni yasashda asosan Ptolemey **ma'lumotlariga** asoslangan **dunyo** xaritasidan foydalangan. Toshkentdagi katta Globus Toshkent universiteti buyurtmasi bilan 1979—84 yillarda Perm davlat universiteti laboratoriyasida yasalgan (diametri 196 sm, og'irligi 490 kg , yuzasi 13 m² ga yaqin, o'quv maqsadlarida foydalaniladi). Yer yuzasidagi baland-pastliklar Yerning kattaligiga nisbatan juda kichik bo'lganligi sababli 2 xil masshtab **qabul qilingan**. Bunday qilinmasa Globusda Yer yuzasi relyefi shakllari ko'rinmay qoladi. Yer yuzasi shakllari bo'rtma usulda, landshaftlar ranglar bilan tasvirlangan. Landshaftlarga rang tanlashda Yerning koinotdan olingan suratlari ranglaridan foydalanilgan.

15-asrda Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek qurdirgan **rasadxonada** ham kattagina Globus bo'lgan. Unda iqlimlarning chegaralari, tog'lar, cho'llar, dengizlar va daryolar ko'rsatilgan. Binobarin, dunyodagi ikkinchi Globusni Samarqand astronomlari yasashgan. Ulug'bekning o'limidan keyin u mutaassiblar tomonidan yo'qotilgan. Samarqanddagi O'zbekiston xalqlari tarixi va madaniyati muzeyida katta **noyob** bir Globus saqlanadi. Mukammal ishlangan bu Globusni 1895-yil xo'jandlik ma'rifatchi Hoji Yusuf Mirfayoz o'g'li musavvir va olimlar bilan hamjihatlikda yasagan. Globusning balandligi uni ko'tarib turgan tagligi bilan birga 117 sm, shar aylanasi 160 sm, masshtabi 1:2 500 000. Globus gradus to'rlariga bo'lingan. Meridian va **parallellar** kora rang , tropik chiziqlari va qutb doiralari kizil rang bilan chizilgan. Nolinchi meridian Grinvichdan emas, Afrikaning g'arbidagi Yashil burun o.laridan o'tkazilgan. Bu Abu Rayhon Beruniy Globussidagi boshlang'ich meridianga to'g'ri keladi. Globusga kariyb mingta **nom** yozilgan.

Topshiriq mazmunini quyidagicha izohlashimiz mumkinki, ushbu topshiriqning matni geografiya faniga asoslanib olindi. Badiiy mavzuga oid matnlardan chetlanildi. Biz shu paytgacha tilimiz imkoniyatlarini boshqa fanlararo o'rganishga va o'rgatishga e'tibor bermadik. O'zbek tili deyilsa, faqatgina ona tili va adabiyot fanlarida aks etadigan tilimizni tushunadigan bo'lib qolganmiz. Ammo tilimizning imkoniyatlari ko'p. Qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar, geografiya, matematika, tarix, biologiya, kimyo fizika va boshqa fanlarni biz so'z orqali anglaymiz. Bizning so'z bilishlik qobiliyatimiz shakllangani sari o'qib tushunishni, o'qib tushunish orqali boshqa tilimizning imkoniyatlarini o'rganib boraveramiz. Maqsadimiz boshqa fanlar kesimida ham tilimiz imkoniyatlaridan foydalanish. O'quvchiga tilni puxta o'rganish orqali boshqa fanlarni ham to'liq darajada egallashga yordam berish. Yuqoridagi matnda beshinchi sinf o'quvchisi uchun qiyinlik darajasi me'yorida bo'lgan so'zlar tanlab olindi. Bu matni berishdan yana bir maqsadimiz o'quvchiga berilgan so'zlarning sinonimlarini topish va ularni mustahkamlash bo'lsa, ikkinchi maqsad esa globus haqida o'quvchiga ma'lumot berish.

2-topshiriq. **Berilgan rasm orqali sinonim so'zlar ishtirokida matn tuzing. Matnda qo'llangan sinonim so'zni uslubiy jihatdan izohlab bering?**





Ma'lumki, inson bu dunyoda fikrlashi, anglashi, tasavvur qilishi, qabul qilishi uning ko'rish qobilyati, eshitish qobilyati, so'zlash qobilyati orqali amalga oshadi. Shulardan eng asosiylarida biri bu- ko'rib tasavvur qilishdir. Yuqorida berilgan topshiriq aynan o'quvchini borliqni ko'rib tasavvur qilishga o'rgatadi. O'quvchi tasavvurini so'zlar oraqali boyitib uni og'zaki va yozma nutqda namoyon etadi. Bunda o'quvchining ijodkorlik qobilyati ham muhim rol o'ynaydi. Topshiriqda tabiat manzaralariga qarab o'quvchilar sinonimlarni qatnashtirib matb tuzishadi va sinonim so'zlarni uslubiy jihatdan izohlab berishadi. Bu topshiriq orqali biz o'quvchida bir emas bir necha qobilyatlarni shakllantirishimiz mumkin.

Izohli o'quv lug'ati tuzishda yosh xususiyatiga e'tibor berish lozimligi, o'quvchining yashash hududi ham inobatga olinishi aytilgan. Negaki, sakkizinchi sinf o'quvchisi nutqida mavjud bo'lgan so'zlar beshinchi sinf uchun mavhum bo'lishi mumkin. Shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, sinonimlar qatorini shevalardan so'z olib boyitishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risidagi qonuni. 2020. <https://lex.uz/docs/-5013007> (2022.19.06.)
 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent. "O'zbekiston", 2008. – B. 102
- Ilmiy-nazariy adabiyotlar**
3. Abdiraimov Sh.. Sinonimlar o'quv lug'atini takomillashtirish zarurati. "O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari" xalqaro konferensiyasi materiallari (2021, № 01). 377-381-b.
 4. Akabirov S.F. O granitsax i istochnikax tolkovogo slovarya uzbekskogo yazyka // Tyurkskogo leksikologiya i leksikografiya. – M., 1971.

5. Akobirov S.F. O‘zbek tilining izohli lug‘atida frazeologiya // “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari”, 1966, №6. 24-29 b.
6. Akobirov S.F. O‘zbek tilining izohli lug‘atida qo‘shma so‘zlar // “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari”, 1965, №6. 36-40 b.
7. Bahriddinova B. “O‘quv lug‘ati” va “o‘quv lug‘atchiligi” tushunchalaring paydo bo‘lish tarixiga doir // QarDU xabarлари. Ilmiy nazariy uslubiy jurnal. – Qarshi, – 2020, 2-son. – B .76-83